

7 – SINIF JAHON TARIXIDAN MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR

1. (7.j.-1) Milodiy IV-VI asrlarda Yevropani, xunn qabilalari boshlab bergan “Xalqlarning buyuk ko'chishlari" jarayoni qamrab oladi. Ushbu jarayonning birinchi sababini ko'rsating.

A) german qabilalarida aholi sonining ko'payib borishi natijasida yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishi.

B) xunnlarning IV asrdan Sharqdan hujumlari ko'plab varvar qabilalarini o'z makonlaridan siljishga majbur etadi.

C) Yevropada II asrdan iqlimning soviy boshlashi.

D) V asrga kelib ekinzorlarni qo'riqqa, suv havzalari va ularga yaqin yerlarni esa botqoqliklarga aylanishi.

2. (7.j.-1) Milodiy IV-VI asrlarda Yevropani, xunn qabilalari boshlab bergan “Xalqlarning buyuk ko'chishlari" jarayoni qamrab oladi. Ushbu jarayonning ikkinchi sababini ko'rsating.

A) german qabilalarida aholi sonining ko'payib borishi natijasida yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishi.

B) xunnlarning IV asrdan Sharqdan hujumlari ko'plab varvar qabilalarini o'z makonlaridan siljishga majbur etadi.

C) Yevropada II asrdan iqlimning soviy boshlashi.

D) german qabilalarida mulkiy tabaqalanishning kuchayishi

3. (7.j.-1) Rim imperiyasining shimoliy chegaralari bo'ylab joylashgan varvar qabilalari II-IV asrlarda ham qanday darajada yashagan.

A) Ibtidoiy jamoa

B) Qabilalar ittifoqi

C) urug'chilik jamoasi

D) Davlatchilik shakllangan

4. (7.j.-1) Qadimgi german qabilalari (franklar, vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar) qaysi daryolar havzasida joylashgan?

A) Tibr va Reyn

B) Reyn va Elba

C) Elba va Temza

D) Temza va Frot

5. (7.j.-1) Germanlar qanday uylarda yashaganlar.

A) yog'ochlardan yasalgan tomi poxol bilan yopilgan uylarda

B) Toshdan qurilgan tomi sopol bilan yopilgan uylarda

C) Paxsa tomi poxol bilan yopilgan uylarda

D) Chayla uylarda.

6. (7.j.-1) Qishloqlar dushmandan qanday himoyalangan.

A) yog'och to'siqlar bilan.

B) Qo'riqchilar qo'yilgan.

C) tuproq to'siq va xandaqlar bilan.

D) Qishloqlar himoyasiz bo'lgan.

7. (7.j.-1) Germanlarning asosiy mashg'ulotlari bo'lgan.

A) Chorvachilik

B) Yilqichilik

C) Baliqchilik

D) Ovchilik

8. (7.j.-1) Germanlar chorvadan tashqari.....

A) ov bilan shug'ullanganlar.

B) parranda boqqanlar,

C) baliqchilik bilan shug'ullanganlar

D) parranda boqqan, ov va baliqchilik bilan shug'ullan

9. (7.j.-1) Milodiy I asr boshlaridan Germanlar sonining ko'payishi xo'jalikda ... ahamiyatini oshiradi.

A) dehqonchilikni

B) Ovchilikni

C) Chorvachilikni

D) Baliqchilikni

10. (7.j.-1) Germanlarda erkaklarning asosiy mashg'uloti.....bo'lgan.

A) Chorvachilik bo'lgan

B) urush bo'lgan

C) Ovchilik bo'lgan

D) Dehqonchilik bo'lgan

11. (7.j.-1) Germanlarda yerga kimlar ishlov bergan?

A) bolalar va qariyalar

B) ayollar va chollar

C) ayollar va qariyalar

D) bolalar va chollar

12. (7.j.-1) Qadimgi germanlar tarixi haqidagi ma'lumotlar qaysi manbalarda uchraydi?

A) Siseronning “Germanlar” asarida

B) Yuliy Sezarning "Galliya urushi haqida xotiralar" asarida

C) rim tarixchisi Tatsitning "Germaniya" asarida

D) B va C javoblar

13. (7.j.-1) Qachondan boshlab dehqonchilikda almashlab ekish qo'llanila boshlandi.

A) Mil. avv. IV asrdan

B) Milodiy V asrdan

C) Milodiy IV asrdan

D) Milodiy VII asrdan

14. (7.j.-1) Germanlar don va dukkakli ekinlardan tashqari...
 A) poliz mahsulotlari, sabzavotlar, jumladan tarvuz yetishtirganlar.
 B) poliz mahsulotlari, sabzavotlar, jumladan karam yetishtirganlar.
 C) poliz mahsulotlari, sabzavotlar, jumladan paxta yetishtirganlar.
 D) poliz mahsulotlari, sabzavotlar, jumladan sabzi yetishtirganlar.
15. (7.j.-1) Germanlarda II-IV asrlarda hunarmandchilikning qaysi turlari taraqqiy etgan.
 A) To'qimachilik, yog'ochsozlik - qayiq yasash, zargarlik, teri-ko'nchilik sohalari
 B) Temirchilik, zargarlik, teri-ko'nchilik sohalari
 C) Qayiqsozlik, teri-ko'nchilik sohalari
 D) Zargarlik, temirchilik, qurolsozlik va yog'ochsozlik sohalari
16. (7.j.-1) Qahrabo bu...
 A) O'ta nafis tosh
 B) vino olinadigan modda
 C) qattiq, smolali va tiniq sariq rangli ma'dan
 D) Magnitlangan qattiq, tiniq ma'dan
17. (7.j.-1) Germanlarda savdo mol ayirboshlash shaklida boiib, faqat imperiya bilan chegara hududlarda
 A) Kumush tanga ishlatilgan
 B) Oltin tanga ishlatilgan
 C) Germanlar puli ishlatilgan
 D) Rim puli ishlatilgan
18. (7.j.-1) Germanlar qachon urug'chilik jamoasi qo'shnichilik jamoasiga aylanishi uchun sharoit yetiladi.
 A) II—V asrlarda
 B) V—VI asrlarda
 C) III—IV asrlarda
 D) VII—VIII asrlarda
19. (7.j.-1) Qachon germanlarda mulkiy tengsizlik kuchayib jamoalar boylar va kambag'allarga ajrala boshlaydi
 A) II asrda
 B) III asrda
 C) IV asrda
 D) V asrda
20. (7.j.-1) Konung bu ...
 A)Zodagon
 B) Qabila a'zosi
 C) Yarim ozod kishi
 D)Qabila boshlig'i
21. (7.j.-1) IV asrda German jamoalarida qanday toifalar shakllanadi.
 A)zodagonlar, erkin kishilar va yarim ozod kishilar
 B) zodagonlar, qullar va yarim ozod kishilar
 C) erkin kishilar va yarim tobe kishilar
 D)erkin kishilar, butunlay qaram kishilar va zodagonlar,
22. (7.j.-1) Konung saylanganidan so'ng qanday olqishlangan
 A)qoya ystiga ko'tarilib olqishlangan.
 B) qalqon ustida ko'tarilib olqishlangan.
 C) oq kiygiz ustida ko'tarilib olqishlangan.
 D) shohsupaga ko'tarilib olqishlangan.
23. (7.j.-1) German qabilalari qachon keng hududlarni nazorat qiluvchi qabila ittifoqlariga birlasha boshlaydi.
 A)II—III asrlardan
 B) III—IV asrlardan
 C) V—VI asrlardan
 D)IV—V asrlardan
24. (7.j.-1) Germanlarning eng katta qabilalarini toping.
 A) alemann, got, franklar
 B) gotlar, franklar, sakslar
 C) franklar, vandallar
 D) alemann,vesgotlar, ostgotlar
25. (7.j.-1) V asr boshlarida Pireneya yarim oroli va Galliyaning bir qismida qaysi varvarlar davlati tashkil topdi.
 A) Ostgotlar
 B) Franklar
 C) Vestgotlar
 D) Angl-sakslar
26. (7.j.-1) German qabilalari bosib olingan yerlarni aniqlang.
 1. Vandallar
 2. Ostgotlar
 3. franklar
 4. angl-sakslar
 a) (Italiyada),
 b) (Shimoliy Afrikada),
 c) (Britaniyada),
 d) (Galliyada),
 A) 1b 2a 3d 4c
 B) 1b 2d 3c 4a
 C) 1d 2a 3b 4 c
 D) 1a 2c 3d 4b
27. (7.j.-1) Germanlar istilosi 476-yili G'arbiy Rim imperiyasining qulashiga olib keladi. Buning natijasida Yevropada ...

- A) quldorlik jamiyatiga o'tish davri boshlanadi.
- B) yangi-feodal jamiyatiga o'tish davri boshlanadi.
- C) natural xo'jalikka o'tish boshlanadi.
- D) siyosiy tarqoqlik davri boshlanadi.

28. (7.j.-2) Buyuk ko'chishlar boshlanishiga qadar franklar qayrda yashagan.

- A) Temza daryosi hududlarda
- B) Elba daryosi yuqori oqimidagi hududlarda
- C) Reyn daryosi quyi oqimidagi hududlarda
- D) Gallianing shimolida

29. (7.j.-2) Qaysi german qabilalari matodan kiyim-bosh kiyishgan va soch-soqollarini olib yurishgan.

- A) franklar
- B) gotlar
- C) langobardlar
- D) gotlar

30. (7.j.-2) Qaysi german qabilalari hayvon terisidan kiyim-bosh kiyishgan?

- A) Franklar va vandallar
- B) Gotlar va langobardlar
- C) Gotlar va sakslar
- D) Vesgotlar va osgotlar

31. (7.j.-2) 486-yili qanday voqea sodir bo'ldi?

- A) Galliyada rim noibi Egidiy mistaqil kinyazlik tuzdi.
- B) Franklar angl-sakslarga xujum qildi.
- C) Egidiyning vorisi Siagriy qo'shinlarini Suasson shahri yaqinidagi jangda magiub etgan Xlodvig franklar davlatiga asos soladi.
- D) Egidiyning vorisi Siagriy qo'shinlarini Suasson shahri yaqinidagi jangda Xlodvig boshliq franklarni mag'lub etdi.

32. (7.j.-1) Franklar tuzgan davlat qachondan boshlab va nima asosida Fransiya deya atala boshlandi.

- A) XI asrdan boshlab, Frank qabilasini nomi davlat nomiga asos bo'ldi.
- B) IX asrdan boshlab, Frans ismli qirol nomi davlat nomiga asos bo'ldi
- C) X asrdan boshlab, Parij atrofidagi D de Frans viloyatni nomi davlat nomiga asos boldi
- D) X asrdan boshlab, Parij so'zining lotincha ma'nosi davlat nomiga asos boldi

33. (7.j.-2) Kimning davrida franklar (486-yili) xristianlikni qabul qildilar?

- A) Xlodvig
- B) Buyk Karl
- C) Roland
- D) Egidiy

34. (7.j.-2) Mamlakat janubidagi yashagan qaysi qabila franklardan ham ko'proq bo'lgan?

- A) Burgundlar
- B) Vestgotlar
- C) Ostgotlar
- D) Gallar

35. (7.j.-2) Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xlodvigning vorislari boshqaruvi paytida alohida xizmatlari evaziga jangchilar va yaqin hamkorlariga nimalar taqdim etgan?

- A) Graflik unvoni
- B) Yirik yer mulklar – benefitsiyalar
- C) Iqto mulklari
- D) Feod – er mulklar

36. (7.j.-2) Benefitsiy bu...?

- A) o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi.
- B) senorning o'z vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etgan yer-mulk.
- C) G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo'ysunish tartibi.
- D) Xlodvigning otining nomi

37. (7.j.-2) Senor bu ...?

- A) o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi.
- B) senorning o'z vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etgan yer-mulk.
- C) G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo'ysunish tartibi.
- D) Xlodvigning otining nomi

38. (7.j.-2) Vassallik bu...?

- A) o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi.
- B) senorning o'z vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etgan yer-mulk.
- C) G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo'ysunish tartibi.
- D) Xlodvigning otining nomi

39. (7.j.-2) VI asr oxirida shakllangan yangi jamiyatning asosiy toifalari ko'rsating.

- A) Jangchilar va dehqonlar
- B) Ruhoniylar va feodallar
- C) Qaram dehqonlar va zodogonlar
- D) Feodallar va qaram dehqonlar

40. (7.j.-2) Xlodvigning vorislari qachon Burgundiya va Provansni istilo qildi.

- A) 534-yili Burgundiyaning, 536-yili Provansni istilo qiladi.

B) 530-yili Burgundiyani, 526-yili Provansni istilo qiladi.

C) 524-yili Burgundiyani, 536-yili Provansni istilo qiladi.

D) 534-yili Burgundiyani, 530-yili Provansni istilo qiladi.

41. (7.j.-2) Franklarda Xlodvig davridayoq mamlakat viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularni kim boshqargan?

A) Gersoglar

B) Vassallar

C) Graflar

D) Senorlar

42. (7.j.-2) Franklar soliq tartiblarini kimlardan o'rganganlar?

A) Gallardan

B) Vandallardan

C) Angl-sakslardan

D) Rimliklardan

43. (7.j.-2) Ma'lumki, erkin franklarda mahalliy boshqaruv asosini yuzlik yig'in tashkil etgan bo'lib, uning boshlig'i - yuzboshisi ...?

A) Senor deb nomlangan

B) Tungin deb nomlangan.

C) Gersog deb nomlangan.

D) Allod deb nomlangan.

44. (7.j.-2) Allod bu ...?

A) Senorning o'z vassaliga harbiy xizmati evaziga in'om etgan yer-mulk.

B) G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir feodalning boshqa feodalga bo'ysunish tartibi.

C) Xlodvigning otining nomi

D) Yerga to'la egalik qilish, G'arbiy Yevropa feodal jamiyatida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan yer-mulk.

45. (7.j.-2) Qaysi qirol davrida yangi qonun chiqarilib u o'g'il voris bo'lmasa yerni avalgidek jamoaga emas, marhumning qizi, singlisi yoki ukasiga o'tish huquqini tasdiqlandi.

A) Xilperik

B) Xlodvig

C) Buyk Karl

D) Egidiy

46. (7.j.-2) Yirik yer egaligi qanday yerlar hisobiga ham kengaya boradi.

A) Qirol yerlari hisobiga

B) O'zlashtirilgan yerlar hisobiga

C) Jamoa yerlari hisobiga

D) Hususiy yerlar hisobiga

47. (7.j.-2) Xlodvig buyrug'iga binoan yozilgan franklarning an'anaviy odatlari to'plami bu...?

A) "Sali haqiqati"

B) "Xlodvig qonunlari"

C) "Frank qonunlari"

D) "Frank an'analari"

48. (7.j.-2) "Sali haqiqati" da qanday ma'lumotlar mavjud?

A) franklarning oldi-sottisi, olib borgan janglari

B) franklarning diniy tasavvurlari, olib borgan janglari

C) franklarning turmush sharoiti, oldi-sottisi, diniy tasavvurlari

D) franklarning xo'jaligi, urf-odatlari, diniy tasavvurlari

49. (7.j.-3) Buyuk Karl yashagan yillarni ko'rsating.

A) 714-768

B) 742-814

C) 768-814

D) 800-864

50. (7.j.-3) Karlning otasi sulola asoschisi Pipin Pakananing yashagan yillarini ko'rsating.

A) 742-814

B) 768-814

C) 714-768

D) 800-864

51. (7.j.-3) Franklar qirolligini qachon imperiyaga aylandi?

A) 745 yili

B) 780 yili

C) 814 yili

D) 800 yili

52. (7.j.-3) Buyuk Karl xokimiyatni qancha boshqargan?

A) 46 yil

B) 26 yil

C) 32 yil

D) 40 yil

53. (7.j.-3) Kim Buyuk Karl tomonidan mag'lub etilganidan so'ng, sochi olinib Korvey monastiriga jo'natilgan?

A) Karlning jiyani, graf Roland

B) Langobardlar qirol Dezideriy

C) Qirol Xilperik

D) papa Lev III

54. (7.j.-3) Ilk o'rta asrlarda Yevropada nima taxt egaligi ramzi bo'lib, undan mahrum etilish qirolni taxtdan mahrum etilganini anglatgan.

A) Uzun aso

- B) Uzun saqol
- C) Uzun soch
- D) Xristianlik xochi

55. (7.j.-3) Qachon Karlning muvaffaqiyatsiz yurishi natijasida uning jiyani Roland halok bo'ldi.
A) 773-yili Langobardlar qiroli Dezideriyga qarshi
B) 778-yili Arablar istilo qilgan Ispaniyaga qarshi
C) 530-yili Burgundiyaga qarshi
D) 526-yili Provansga qarshi

56. (7.j.-3) Reyn daryosining o'ng sohilida yashagan saks qabilalariga qarshi urushlar qancha davom etgan.
A) 30 yildan ortiq (772-804)
B) 20 yildan ortiq (782-804)
C) 40 yildan ortiq (762-804)
D) 10 yildan ortiq (786-800)

57. (7.j.-3) Qaysi Rim papasi 800-yil-ning dekabrda avliyo Pyotr ibodatxonasida Karlga imperatorlik tojini kiydiradi.
A) papa Inokentiy
B) papa Urban II
C) papa Lev III
D) papa Ioann XII

58. (7.j.-3) Buyuk Karl davlatining doimiy poytaxti qae?
A) doimiy poytaxt bo'lmagan
B) Verden shahri
C) Rim shahri
D) Parij yaqinidagi Il de Frans viloyati

59. (7.j.-3) Buyuk Karl davrida ritsarlar bo'linmalarida kimlar xizmat qilgan?
A) faqat dehqonlar
B) faqat harbiylar
C) faqat boy zamindorlar
D) faqat qaram dehqonlar

60. (7.j.-3) Feod bu...
A) nemischa qo'rg'on, mulk
B) lotincha katta yer
C) yunoncha qiroli yeri
D) lotincha cherkov yeri

61. (7.j.-3) Buyuk Karl davrida yirik qabilalarni kimlar boshqargan?
A) graflar (nem. qiroli tayinlagan amaldor)
B) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
C) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
D) senorlar (lot. o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi)

62. (7.j.-3) Buyuk Karl davrida yirik boimagan hududlarni kimlar boshqargan?
A) graflar (nem. qiroli tayinlagan amaldor)
B) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
C) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
D) senorlar (lot. o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ixtiyorida qaram dehqonlari va mayda feodal-vassallari bo'lgan yer egasi)

63. (7.j.-3) Buyuk Karl davrida markalar (nem. chegara harbiy viloyati)ni kimlar boshqargan?
A) graflar (nem. qiroli tayinlagan amaldor)
B) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
C) gersoglar (nem. saylangan harbiy yo'l boshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i)
D) markagraflar (nem. chegara viloyati hokimi)

64. (7.j.-3) Yilnomalarda yozilishicha, kim Karlga qimmatbaho sovg'alar bilan birga Quddusdagi Iso payg'ambar qabri joylashgan yerni ham taqdim etgan.
A) Langobardlar qiroli Dezideriy
B) Qiroli Xilperik
C) papa Lev III
D) arab xalifasi Horun ar-Rashid

65. (7.j.-3) Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari qaysi shartnomadan so'ng tashkil topgan?
A) Rim shahrida 843-yil tuzilgan shartnomadan song
B) Verden shahrida 843-yil tuzilgan shartnomadan so'ng
C) Parij yaqinidagi Il de Frans shahrida 800-yil tuzilgan shartnomadan so'ng
D) Verden shahrida 800-yil tuzilgan shartnomadan so'ng

66. (7.j.-4) 919-yili mahalliy zodagonlar Sharqiy Frank qirolligi (boiajak Germaniya)ga karolinglar sulolasi o'rniga kimni saylaydilar?
A) Saksoniya gersogi Otton I ni
B) Langobardlar qiroli Dezideriy ni
C) Qiroli Xilperik ni
D) Saksoniya gersogi Genrix ni

67. (7.j.-4) Qaysi Germaniya qiroli Vengerlar bilan 9 yilga tinchlik sulhi tuzib aholining asosiy mulki burgda - qal'alarda bo'lishini ta'minlashga xarakat qildi?
A) Genrix I
B) Otton I
C) Otton III

D) Genrix II

68. (7.j.-4) 955-yilda Bavariyaning Lex daryosi bo'yida bo'lib o'tgan og'ir jangda vengerlarni qaysi qirol mag'lub etdi?

- A) Genrix I
- B) Otton III
- C) Otton I
- D) Genrix II

69. (7.j.-4) Qaysi voqeadan so'ng Muqaddas Rim imperiyasi vujudga keldi?

- A) 962-yilda Otton I ga papa Ioann XII imperatorlik tojini kiydirgandan so'ng.
- B) 955-yilda Bavariyaning Lex daryosi bo'yida vengerlar qirib tashlangandan so'ng
- C) 919-yili mahalliy zodagonlar Sharqiy Frank qirolligi (boiajak Germaniya)ga Saksoniya gersogi Genrixni saylagandan so'ng
- D) Verden shahrida 843-yil tuzilgan shartnomadan so'ng

70. (7.j.-4) Zamondoshlari kimni "dunyo mo'jizasi" deb nomlagan?

- A) Genrix I ni
- B) Otton I ni
- C) Otton III ni
- D) Genrix II ni

71. (7.j.-4) Muqaddas Rim imperiyasi qancha hukm surgan?

- A) 962-yildan 1815-yilgacha
- B) 950-yildan 1706-yilgacha
- C) 912-yildan 1800-yilgacha
- D) 962-yildan 1806-yilgacha

72. (7.j.-4) Kimning davrida davlat boshqaruvida cherkov hodimlari - yepiskop va abbatlardan ustalik bilan foydalanilgan?

- A) Genrix I
- B) Otton I
- C) Otton III
- D) Genrix II

73. (7.j.-4) Qaysi qirol o'zining ustozini Silvester III (999-1003) nomi bilan Rim papaligiga saylanishiga erishgan.

- A) Genrix I
- B) Otton I
- C) Otton III
- D) Genrix II

74. (7.j.-4) Kim kambag'al oiladan bo'lishiga qaramay arxiyepiskoplikdan Rim papasi darajasiga erishishgan?

- A) Gerbert
- B) Papa Lev III

C) papa Ioann XII

D) papa Urban II

75. (7.j.-5) Rim legionlari qachon butunlay Britaniyani tashlab Italiyaga qaytdi.

- A) 477-yili
- B) 476-yili
- C) 407-yili
- D) 467-yili

76. (7.j.-5) Germanlarning yut, angl va saks qabilalari qaerda yashagan?

- A) Germaniyaning shimoli va Yutlandiya yarim orolida
- B) Temza daryosi hududlarda
- C) Elba daryosi yuqori oqimida
- D) Reyn daryosi quyi oqimida

77. (7.j.-5) Yutlar qachon Kent viloyatini bosib oldilar?

- A) VI asrda
- B) III asr o'rtalarida
- C) V asr o'rtalarida
- D) VII asrda

78. (7.j.-5) So'nggi rimliklardan kim VI asrning boshlarida brittlarni birlashtirib, germanlarga qarshilik ko'rsata boshlaydi?

- A) Amvrosiy Avrelian
- B) Jinevra
- C) Merlinlar
- D) Lancelot

79. (7.j.-5) Dostonchilar tarixiy shaxs bo'lgan Amvrosiy Avrelianni qanday ataganlar?

- A) Qirol Avrelian
- B) Jinevra
- C) Artorius yoki Artur
- D) Merlin yoki Lancelot

80. (7.j.-5) Bosqinchilar Britaniya yerlarida nechta qirollik tuzishadi?

- A) 6ta
- B) 5ta
- C) 8ta
- D) 7ta

81. (7.j.-5) Orolning shimoliy va markaziy qismida joylashgan angllar...

- A) Nortumbriya, Mersiya va Sharqiy Angliya qirolliklarini tashkil etgan
- B) Uesseks, Sasseks va Esseks qirolliklarini tashkil etgan
- C) Kent qirolligini tashkil etgan
- D) Uesseks (G'arbiy-sakson) qirolligiga asos solgan

82. (7.j.-5) Yettinchi Kent qirolligiga asos solgan.

- A) sakslar
- B) angllar
- C) yutlar
- D) brittlar

83. (7.j.-5) London shahri qachon va qayrda, kimlar tomonidan barpo qilingan?

- A) mil. avv. 13-yil rimliklar tomonidan Reyn daryosining sharqiy qismida
- B) mil. 13-yil brittlar tomonidan Elba daryosining shimolida
- C) mil. 40-yil angl-sakslar tomonidan Temza daryosining shimoliy qismida
- D) mil. 43-yil rimliklar tomonidan Temza daryosining shimoliy qismida

84. (7.j.-5) Rohiblari o'z bilimlari bilan tanilgan, lotin va yunon tillarida asarlar bitgan, ajoyib xattotlik san'ati markazlari bo'lgan mashhur irland monastirlari kimlar tomonidan yondirilib, kuli ko'kka sovurilgan?

- A) sakslar
- B) angllar
- C) yutlar
- D) normannlar

85. (7.j.-5) Normannlar qachon Londonni bosib oladi va yondirib yuboradi?

- A) 871-yili
- B) 842-yili
- C) 770-yili
- D) 780-yili

86. (7.j.-5) Qaysi voqea oqibatida London shahri qirollar qarorgohi va Angliyaning rasmiy poytaxtiga aylandi?

- A) 1066-yilda normannlar istilosi oqibatida
- B) Yutlarni yettinchi Kent qirolligiga asos solishi natijasida
- C) mil. 43-yil rimliklar tomonidan Temza daryosining shimoliy qismida London shahrini qurilishi oqibatida
- D) Angllarni Nortumbriya, Mersiya va Sharqiy Angliya qirolliklarini tashkil etishi natijasida

87. (7.j.-5) Deyarli barcha angl-saks qirolliklari daniyaliklar tomonidan bo'ysundirilsada, qarshilikni faqat qaysi qirolligi davom ettirdi?

- A) Sasseks qirolligi
- B) Esseks qirolligi
- C) Kent qirolligi
- D) Uesseks qirolligi

88. (7.j.-5) Buyuk Alfredning 879-yili daniyaliklar bilan tuzgan tinchlik sulhiga ko'ra?

A) janubi-g'arbiy hududlar Alfredga, shimoli-sharqiy hududlar esa, daniyaliklarga berildi

- B) London va Chechter oralig'idagi qadimgi rimliklar qurdirgan tosh yo'l bo'ylab chegara o'rnatildi
- C) Skandinavlarda qoldirilgan yerlar Daniya qonunlari viloyati yoki inglizcha Denlo nomini oladi
- D) A B C to'g'ri.

89. (7.j.-5) Buyuk Alfred 879-yili daniyaliklar bilan tuzgan tinchlik sulhidan...

- A) yangi kuchli qo'shin tuzish uchun foydalandi
- B) ichki nizolarni bartaraf etish uchun foydalandi
- C) boylik to'plash uchun foydalandi
- D) mustahkam qalalar qurish uchun foydalandi

90. (7.j.-5) Buyuk Alfred qo'shin tuzish bo'yicha olib brogan islohatlari natijasida jamiyat...

- A) Harbiylar va hunarmandlarga bo'lindi.
- B) Jangchilar va ruhoniylarga bo'linadi.
- C) Jangchilar va dehqonlarga bo'linadi.
- D) Feodallar va dehqonlarga bo'linadi.

91. (7.j.-5) Buyuk Alfred daniyaliklar qal'alarini qamal qilishni unchalik xush ko'rmasligini anglab...

- A) burglar barpo ettiradi
- B) kemalar yasattiradi.
- C) mudofa devorlari qurilishini to'htatdi.
- D) jangni ochiq maydonda olib bordi.

92. (7.j.-5) Vikinglar ruslarda nima deyilgan?

- A) Normannlar
- B) Varyaglar
- C) Dengiz xalqlari
- D) Burlar

93. (7.j.-5) Vikinglar G'arbiy Yevropada nima deyilgan?

- A) Varyaglar
- B) Dengiz xalqlari
- C) Burlar
- D) Normannlar

94. (7.j.-5) Vikinglar qachon Shimoliy Fransiyaning bosib olganlar?

- A) IX asrda
- B) XII asrda
- C) X asrda
- D) XI asrda

95. (7.j.-5) Kimning davrida "Anglosakson solnomasi" tuziladi?

- A) Buyuk Alfred
- B) Amvrosiy Avrelian

- C) Jinevra
- D) Merlin

96. (7.j.-5) "Anglosakson solnomasi" qancha vaqt davom ettirilgan?

- A) 200 yil
- B) 250 yil
- C) 150 yil
- D) 175 yil

97. (7.j.-5) Daniya qirol qachon ingliz sohiliga o'z qo'shinini tushiradi.

- A) 1000-yili
- B) 1113-yili
- C) 1010-yili
- D) 1013-yili

98. (7.j.-6) IV asrda Vizantiya tarkibiga qaysi hududlar kirgan?

- A) Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya, Falastin, Misr, Krit va Kipr orollari
- B) Kichik Osiyo, Kavkaz, Suriya, Falastin, Mesopatamiya, Krit va Kipr orollari
- C) Bolqon yarim oroli, Falastin, Misr, Krit va Kipr orollari
- D) Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Edessa, Hondiston, Krit va Kipr orollari

99. (7.j.-6) Sharqiy Rim imperiyasida qaysi xalqlar yashagan?

- A) forslar, suriyaliklar, ozariylar, gruzinlar, yahudiylar
- B) ellinlar, misrliklar, armanlar, gruzinlar, slavyanlar
- C) ellinlar, suriyaliklar, armanlar, gruzinlar, yahudiylar
- D) yunonlar, slavyanlar, turklar, gruzinlar, yahudiylar

100. (7.j.-6) Sharqiy Rim imperiyasining davlat tili bu ...

- A) Yunon tili
- B) Slavyan tili
- C) Lotin tili
- D) Yahudiy tili

101. (7.j.-6) O'rta asrlarda qaysi shahar Osiyo va Yevropani bog'laydigan "Oltin koprik" bo'lgan?

- A) Aleksandriya
- B) Antioxiya
- C) Edessa
- D) Konstantinopol

102. (7.j.-6) Vizantiya oltin puli (nomisma) savdoda qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

- A) ichki bozorda ishonchli pul hisoblangan
- B) ishonchli xalqaro pul hisoblangan

- C) qadrsizlangan pul hisoblangan
- D) ichki va tashqi bozor puli hisoblangan

103. (7.j.-6) Vizantiya imperiyasini kim boshqargan?

- A) Karol
- B) Podsho
- C) Vasilevs
- D) Papa

104. (7.j.-6) Bayramlar va qabullar paytida vasilevs kiyimi va etugi qanday rangda bo'lgan?

- A) qizil
- B) to'q qizil
- C) havorang
- D) oq

105. (7.j.-6) Vasilevsqa maslahat beruvchi organ bu ...

- A) Sinklit
- B) Senat
- C) Svarog
- D) Perun

106. (7.j.-6) Vizantiya imperiyasida boshlang'ich va o'rta maktablarning ko'pchiligi ...

- A) Cherkov va monastirga qarashli bo'lgan
- B) Xususiy va davlatniki bo'lgan
- C) Jamoa va davlatniki bo'lgan
- D) Butunlay davlatga qarashli bo'lgan

107. (7.j.-6) Vizantiya imperatori Yustinian I (527-565) qanday oilada tug'ilgan?

- A) Xukmdor oilasida tug'ilgan.
- B) Ruhoniylar oilasida tug'ilgan.
- C) Dehqon oilasida tug'ilgan.
- D) Xarbiy sarkarda oilasida tug'ilgan.

108. (7.j.-6) Yustinianning rafiqasi malika Feodora yoshligida qanday kasb bilan shug'illangan?

- A) aktrisa
- B) darboz
- C) saroy xizmatkori
- D) jangchi bo'lgan

109. (7.j.-6) Yustinian I 534-yilda kimni O'rta dengizda savdo kemalarini talash bilan shug'ullangan vandallarga qarshi yuboradi?

- A) Yustinian II ni
- B) malika Feodorani
- C) sarkarda Velisariyni
- D) Amakisi Yustini

110. (7.j.-6) Vizantiyaliklar Italiyaning katta qismini bo'ysundirgandan so'ng alohida noiblik (ekzarxat) tuzishadi. Mazkur noiblikning poytaxtini toping.

- A) Kardova
- B) Antioxiya
- C) Edessa
- D) Ravenna

111. (7.j.-6) Vizantiyadan Suriya va Misrni Arab xalifaligi qachon tortib oldi?

- A) VI asrning o'rtalarida
- B) VII asrda
- C) V asrning o'rtalarida
- D) IX asrda

112. (7.j.-6) Vizantiyada feodal munosabatlarini qachon uzil-kesil o'rnatildi?

- A) V-IX asrlarda
- B) VIII-XII asrlarda
- C) VII-X asrlarda
- D) IX-XI asrlarda

113. (7.j.-7) Yozma manbalarda vizantiyalik tarixchilar tomonidan "slavyanlar" atamasi qachondan boshlab ishlatilgan.

- A) VI asrdan
- B) II asrdan
- C) IV asrdan
- D) V asrdan

114. (7.j.-7) Slavyan qabilalari qanday guruhga bo'lingan?

- A) janubiy va sharqiy siavyanlarga
- B) g'arbiy, shimoliy va sharqiy siavyanlarga
- C) g'arbiy, janubiy va sharqiy siavyanlarga
- D) janubiy va simoli - sharqiy siavyanlarga

115. (7.j.-7) G'arbiy slavyanlar qaysi xalqlar kirgan?

- A) bolgarlar, serblar, xorvatlar va slovenlar
- B) chernogorlar, makedonlar va bosniyaliklar
- C) chexlar, polyaklar, lujichanlar va slovaklar
- D) ruslar, ukrainlar va belomslar

116. (7.j.-7) Janubiy slavyanlarga qaysi xalqlar kirgan?

- A) Ukrainlar, bolgarlar, serblar, xorvatlar va slovenlar
- B) bolgarlar, serblar, xorvatlar, slovenlar, chernogorlar, makedonlar va bosniyaliklar.
- C) chexlar, polyaklar, lujichanlar va slovaklar
- D) ruslar, ukrainlar va belomslar

117. (7.j.-7) Sharqiy slavyanlar qaysi xalqlar kirgan?

- A) bolgarlar, serblar, xorvatlar va slovenlar
- B) chernogorlar, makedonlar va bosniyaliklar
- C) chexlar, polyaklar, lujichanlar va slovaklar
- D) ruslar, ukrainlar va belomslar

118. (7.j.-7) Slavyanlar qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lib, ular ko'proq...

- A) Sholi va tariq ekkanlar.
- B) Bug'doy va arpa ekkanlar.
- C) Arpa va tariq ekkanlar.
- D) Suli va makkajo'gori ekkanlar.

119. (7.j.-7) Slavyanlarning xalq yig'jnlari nima deyilgan?

- A) Veche
- B) Svarog
- C) Perun
- D) Jiva

120. (7.j.-7) Slavyanlarda osmon xudosi...

- A) Veche
- B) Perun
- C) Svarog
- D) Jiva

121. (7.j.-7) Slavyanlarda momoqaldiroq va yashin xudosi...

- A) Veche
- B) Perun
- C) Svarog
- D) Jiva

122. (7.j.-7) Slavyanlarda hosildorlik xudosi ...

- A) Veche
- B) Perun
- C) Svarog
- D) Jiva

123. (7.j.-7) Dastlabki slavyan davlati qaerda va qachon tuzilgan?

- A) Qora dengiz sharqida VII asrning oxirlarida
- B) Bolqon yarim orolining janubida V asrda
- C) O'rta er dengizining shimoliy qismida VIII asr o'rtalarida
- D) Bolqon yarim oroli shimolida VII asrning oxirlarida

124. (7.j.-7) Qachon Bolgariya yirik davlatga aylangan?

- A) IX asr boshlariga
- B) VI asrda
- C) VIII asr o'rtalarida
- D) VII asrning oxirlarida

125. (7.j.-7) Qachon Bolgariya zaiflashib qo'shni Vizantiya tomonidan bosib olindi?

- A) IX asr boshlariga
- B) VI asrda
- C) X asr oxirida
- D) VIII asr o'rtalarida

126.(7.j.-7)Chex qabilalari ittifoqi boshida qaysi xonadondan bo'lgan knyazlar turgan?

- A) avliyo Vitni xonadoni
- B) Prjemislovichlar xonadoni
- C) Kirill va Mefodiylar xonadoni
- D) Knyaz Vatslav xonadoni

127.(7.j.-7)Hozirgi Chexiyaning sharqida IX asr oxiri - X asr boshlarida vujudga kelgan va X asr boshida ko'chmanchi vengerlar tomonidan parchalanib Chexiya davlati tarkibiga kirgan davlat bu?

- A) Buyuk Moraviya
- B) Bulg'or podsholigi
- C) Polsha davlati
- D) Vengriya

128.(7.j.-7)Pragada mamlakatning bosh ibodatxonasi - avliyo Vitni kim bunyod ettirgan?

- A) Boleslav I
- B) Bratislav I
- C) Knyaz Vatslav
- D) Kirill va Mefodiylar

129.(7.j.-7)Qachon Pragada alohida yepiskoplik tashkil qilingan?

- A) 900-yili
- B) 973-yili
- C) 873-yili
- D) 773-yili

130.(7.j.-7)Germaniya imperatori Genrix IV 1085-yili Rim papasiga qarshi og'ir kurashida unga yordam berganligi uchun kimga Qirol unvonini taqdim etadi?

- A) Chex knyazi Bratislav II ga
- B) Polsha xukmdori Boleslav I ga
- C) Knyaz Vatslavga
- D) Kirill va Mefodiylarga

131.(7.j.-7)Meshko I qaysi sulola vakili bo'lgan?

- A) Prjemislovichlar sulolasi
- B) Mefodiylar sulolasi
- C) Piastlar sulolasi
- D) Knyaz Vatslav sulolasi

132.(7.j.-7)Meshko I qachon xristianlikni qabul qilgan?

- A) 1018-yili
- B) 950-yili
- C) 900-yili
- D) 966-yili

133.(7.j.-7)Meshko I ning o'gii Boleslav Jasur qachon Rus knyazi Yaroslav Mudriy (Donishmand) qo'shinini tor-mor etib Kiyevni bosib oladi?

- A) 1018-yili
- B) 950-yili
- C) 900-yili
- D) 966-yili

134.(7.j.-7)Qaysi Knyaz X asr o'rtalarida Visla daryosi havzasida polyak qabilalarini birlashtirib, Polsha davlatiga asos solgan?

- A) Boleslav Jasur
- B) Piastlar sulolasi
- C) Knyaz Yaroslav Mudriy
- D) Meshko I

135.(7.j.-8)Oleg qachon o'z lashkari bilan Kievni egallab Kiev Rusi nomini olgan davlatga asos soladi?

- A) 882-yili
- B) 907-yili
- C) 800-yili
- D) 866-yili

136.(7.j.-8)Qachon Knyaz Olegning qo'shini Konstantinopolga hujum qilib, vizantiyaliklardan katta to'lov olishga va rus savdogarlariga Vizantiyada bojsiz savdo qilishga erishadi?

- A) 882-yili
- B) 922-yili
- C) 907-yili
- D) 866-yili

137.(7.j.-8)Igor knyazligini (912—945-yillari) nimadan boshlandi?

- A) ko'chmanchi bijanak qabilalariga qarshi urushdan
- B) Vizantiyaga qarshi yurishdan
- C) Knyaz Olegga qarshi urushdan
- D) drevlyan qabilalari qarshi urushdan

138.(7.j.-8)Knyaz Igor qachon va nima sababdan halok bo'lgan?

- A) 912-yili ko'chmanchi bijanak qabilalariga qarshi urushda
- B) 940-yili Vizantiyaga qarshi yurishda
- C) 945-yili drevlyan qabilalari bilan to'qnashuvda
- D) 912-yili Knyaz Olegga qarshi urushda

139.(7.j.-8)Knyaz Igor vafotidan so'ng hokimiyat kimga o'tdi?

- A) rafiqasi Olgaga
- B) o'g'li Svyatoslavga
- C) nabirasi Vladimirga
- D) Novgorod noibi Yaroslavga

140.(7.j.-8)Knyaz Igorning rafiqasi Olga qachon Konstantinopolga tashrif buyurib, xristianlikni qabul qilgan?

- A) X asrda

- B) XI asr o'rtalarida
- C) X asrning 50-yillarida
- D) IX asrning 50-yillarida

141.(7.j.-8)"Agar men bir o'zim boshqa dinga o'tsam, drujinam ustimdan kuladi" - degan so'zlar kimga tegishli?

- A) Knyaz Igorning rafiqasi Olgaga
- B) Knyaz Svyatoslavga
- C) Knyaz Vladimirda
- D) Novgorod noibi Yaroslavga

142.(7.j.-8)Svyatoslav 964-yili knyazlikni olganda necha yoshda edi?

- A) 12 yoshda
- B) 25 yoshda
- C) 20 yoshda
- D) 22 yoshda

143.(7.j.-8)Svyatoslav xazarlarning asosiy kuchlarini engib, ularni qaysi poytaxt shahrini egallaydi?

- A) Xazar shahrini
- B) Don shahrini
- C) Itil shahrini
- D) Novgorod shahrini

144.(7.j.-8)Knyaz Svyatoslav nima sababdan halok bo'lgan?

- A) ko'chmanchi bijanak qabilalariga qarshi urushda
- B) Vizantiyaga qarshi yurishda
- C) drevlyan qabilalari bilan to'qnashuvda
- D) Xazarlarga qarshi urushda

145.(7.j.-8)Knyaz Svyatoslav vafotidan so'ng hokimiyat kimga o'tdi?

- A) Olgaga
- B) Svyatoslav II ga
- C) Vladimirda
- D) Novgorod noibi Yaroslavga

146.(7.j.-8)Buyuk tarixida Vladimir qanday hukmdor sifatida qadrlanadi?

- A) istilochi sifatida
- B) ruslarga xristian dinini qabul qildirgan hukmdor sifatida
- C) mahalliy knyazlar sulolalasini tugatgan hukmdor sifatida
- D) kuchli diplomat hukmdor sifatida

147.(7.j.-8)Knyaz Vladimir qachon va nima sababdan vafot etgan?

- A) 1036-yili Kiyev ostonalarida ko'chmanchi bijanak qabilalariga qarshi urushda
- B) 1040-yili Vizantiyaga qarshi yurishda

- C) 1015-yili katta o'g'li, Yaroslavga qarshi yurishga tayyorgarlik paytida
- D) 1012-yili drevlyan qabilalari bilan to'qnashuvda

148.(7.j.-8)Yaroslav knyazligi davrida...?

- A) 1036-yili Kiyev ostonalarida paydo boigan bijanak qabilalari uzil-kesil mag'lub etiladi
- B) Kiyevda avliyo Sofiya ibodatxonasi bunyod etiladi
- C) Kiyev xristian dunyosining eng yirik shaharlaridan biriga aylanadi
- D) A B C javoblar to'g'ri

149.(7.j.-8)Yaroslav knyazligi davrida...?

- A) Yaroslav davrida Rusda maorif yuksaladi
- B) Novgorodda 300 ruhoniyy tayyorlaydigan bilim yurti ochiladi
- C) Kiyevda Vizantiyadan keltirilgan yunon tilidagi kitoblarni ruschaga tarjima qilish yo'lga qo'yiladi
- D) A B C javoblar to'g'ri

150.(7.j.-8)Yaroslavning qizlaridan Anastasiya qaysi davlat qirolligiga turmushga berilgan?

- A) Fransiya qirolligiga
- B) Vengriya qirolligiga
- C) Norvegiya qirolligiga
- D) Vizantiya qirolligiga

151.(7.j.-8)Rus yerlarining dastlabki yozma qonunlari to'plami ("Rus haqiqati") kimning davrida tuzilgan?

- A) Knyaz Oleg davrida
- B) Knyaz Svyatoslav davrida
- C) Knyaz Vladimir davrida
- D) Donishmand nomini olgan Yaroslav davrida

152.(7.j.-8)"Rus haqiqati"ga ko'proq bo'yicha qonunlar kiritilgan.

- A) fuqarolik va jinoiy ishlar
- B) ma'muriy va jinoiy ishlar
- C) faqat jinoiy ishlar
- D) ijtimoiy masalalar va ma'muriy ishlar

153.(7.j.-8)"Rus haqiqati"ning ko'pchilik moddalarida

- A) O'lim jazosi ko'zda tutilgan.
- B) Musodara qilish jazosi ko'zda tutilgan.
- C) Jarima to'lash ko'zda tutilgan.
- D) Jismoniy jazo ko'zda tutilgan.

154.(7.j.-8)Qaysi xalqlarning xonlari zarur paytda o'n minglab jangchilarni safga tizib, Rus knyazlari yeriariga talonchilik bosqinlari uyushtirganlar?

- A) ko'chmanchi bijanaklar
- B) qipchoqlar
- C) drevlyan qabilalari
- D) xazarlar

155.(7.j.-9) Buyuk Karl tomonidan 789-yili xalq maktablari joriy etiladi. Qonunga binoan, kimlarga oddiy xalq farzandlarini bepul o'qitish buyurilgan?

- A) munajjimlarga
- B) olimlarga
- C) ruhoniylarga
- D) shoirlarga

156.(7.j.-9) Biz Buyuk Karl hayoti va faoliyati haqida kimning asaridan ma'lumotlar olganmiz?

- A) tarixchi-rohib Eyngard asaridan
- B) Saroy akademiyasi a'zosi Alkuin asaridan
- C) Afina akademiyasidagi qo'lyozmalardan
- D) imperator Yustinianidan

157.(7.j.-9) Buyuk Karl qanday tillarini mukammal bilgan?

- A) lotin va arab
- B) yunon va frank
- C) german va yunon
- D) lotin va yunon

158.(7.j.-9) Kim ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamondoshlari tomonidan "mehnatsevar chumoli" deya atalgan?

- A) Saroy akademiyasi a'zosi Alkuin
- B) Buyuk Karl
- C) tarixchi-rohib Eyngard
- D) imperator Yustinian

159.(7.j.-9) O'rta asrlarning asosiy ko'pchilik davrida qaysi davlat o'ziga xos yuksak madaniyati bilan Yevropaning eng ilg'or mamlakati bo'lib qolgan?

- A) Miqaddas Rim Imperiyasi
- B) Buyuk Karl Imperiyasi
- C) Kiev Rusi
- D) Vizantiya

160.(7.j.-9) Ilm-fan eng rivojlangan shahar - «fanlar onasi» bu....

- A) Afina shahri edi.
- B) Kiev shahri edi.
- C) Konstantinopol shahri edi.
- D) Rim shahri edi.

161.(7.j.-9) O'rta asrlarda qaysi shaharda oliy tibbiyot maktabi faoliyat yuritgan?

- A) Afina shahrida
- B) Konstantinopol shahrida
- C) Kiev shahrida
- D) Rim shahrida

162.(7.j.-9) Platon (mil. av. IV asrda) asos solgan Afina akademiyasini kim yopish haqida farmon chiqargan?

- A) Knyaz Oleg
- B) Imperator Yustinian
- C) Buyuk Karl
- D) Meshko I

163.(7.j.-9) Qaysi shaharda IX asrda Magnavr oliy maktabi, 1045-yili huquqshunoslik va falsafa fakultetlaridan iborat universitet ochiladi?

- A) Afina shahrida
- B) Kiev shahrida
- C) Konstantinopol shahrida
- D) Rim shahrida

164.(7.j.-9) Vizantiyaning dengiz janglaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlagan "grek olovi" qachon ixtiro qilingan?

- A) V asrda
- B) VI asrda
- C) VII asrda
- D) VIII asrda

165.(7.j.-9) Mozaika bu ...?

- A) bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar va metall) boiaklaridan ishlangan tasvir, naqshinkor mahobatli (monumental) bezak san'atining asosiy turlaridan.
- B) nam suvoq ustiga rangdor qilib ishlangan rasm.
- C) xristian diniga mansub dindorlar sajda qiladigan, cho'qinadigan Iso, Bibi Maryam va avliyolarning rang tasviri yoki bo'rtma tasviri.
- D) ganchdan o'yib ishlanadigan xayvonlar, qushlar yoki odamlar tasviri.

166.(7.j.-9) Freska bu...?

- A) bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar va metall) boiaklaridan ishlangan tasvir, naqshinkor mahobatli (monumental) bezak san'atining asosiy turlaridan.
- B) nam suvoq ustiga rangdor qilib ishlangan rasm.
- C) xristian diniga mansub dindorlar sajda qiladigan, cho'qinadigan Iso, Bibi Maryam va avliyolarning rang tasviri yoki bo'rtma tasviri.
- D) ganchdan o'yib ishlanadigan xayvonlar, qushlar yoki odamlar tasviri.

167.(7.j.-9) Ikona bu...

- A) xristian diniga mansub dindorlar sajda qiladigan, cho'qinadigan Iso, Bibi Maryam va avliyolarning rang tasviri yoki bo'rtma tasviri.
- B) ganchdan o'yib ishlanadigan xayvonlar, qushlar yoki odamlar tasviri.
- C) bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog'och, marmar va metall) boiaklaridan ishlangan tasvir, naqshinkor mahobatli (monumental) bezak san'atining asosiy turlaridan.
- D) nam suvoq ustiga rangdor qilib ishlangan rasm.

168.(7.j.-9) Mozaika va freskalari bilan o'z davrining ajoyib me'morchilik yodgorliklaridan biri bo'lgan Xori monastiri hozirda

- A) Kievdagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi hisoblanadi
- B) Istanbuldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi hisoblanadi
- C) Fransiyadagi Puate ibodatxonasi hisoblanadi
- D) Istanbuldagi Qahriya masjidi hisoblanadi

169.(7.j.-9) Uning ulkan gumbazi (diametri 31,5 m) bo'lib, 40 ta deraza gulchambari bilan qurshalgan. Osmon gumbazi kabi ushbu gumbaz go'yo havoda muallaq turgandek tuyuladi. Turli xil toshlar va oyna parchalaridan yasalgan juda ajoyib mozaikalar ibodatxona devorlarini bezagan.

Ushbu ta'rif qaysi ibodatxona to'g'risida?

- A) Kievdagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi
- B) Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi
- C) Fransiyadagi Puate ibodatxonasi
- D) Istanbuldagi Qahriya masjidi

170.(7.j.-9) G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar me'morchiligida qaysi uslub juda yuksalgan?

- A) Roman uslubi
- B) German uslubi
- C) Gotik uslub
- D) sharqona uslub

171.(7.j.-9) Qaysi asrlarda to'g'ri burchakli ibodatxonalar o'rniga ko'rinishidan xochsifat, o'rtasi xoch gumbazli ibodatxonalar barpo qilingan?

- A) VIII-IX asrlarda
- B) IX-X asrlarda
- C) X-XI asrlarda
- D) XI-XII asrlarda

172.(7.j.-9) Fransiyadagi Puate, Klyuni, Arl ibodatxonalar, Germaniyadagi Shpeyer, Vorms, Maynts, Axendagi cherkovlar qaysi uslubda qurilgan?

- A) German uslubida
- B) Gotik uslubda
- C) Roman uslubida
- D) sharqona uslubda

173.(7.j.-9) G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda faqat dehqonlar emas, hatto feodallar orasida ham savodli kishilar kam bo'lgan. Kimlar imzo o'rniga ko'pincha ikki chiziq tortib qo'yishgan?

- A) Dehqonlar
- B) Ritsarlar
- C) Feodallar
- D) Qirollar

174.(7.j.-9) G'arbiy Yevropada ilk o'rta asr maktablarida darslar qaysi tilida olib borilgan?

- A) slavyan
- B) yunon
- C) german
- D) lotin

175.(7.j.-9) Grammatika bu...?

- A) hozirgi mantiqqa o'xshash fan bo'lib, unda o'quvchilar munozara olib borishga, o'z fikrini isbotlashga o'rgatilgan
- B) tilshunoslik ilmi, bolalarni o'qishga o'rgatgan
- C) she'r, badiiy asarlar yozishni, notiqlik san'atini, huquq asoslarini o'rgatgan
- D) arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya asoslari

176.(7.j.-9) Dialektika bu...?

- A) tilshunoslik ilmi, bolalarni o'qishga o'rgatgan
- B) she'r, badiiy asarlar yozishni, notiqlik san'atini, huquq asoslarini o'rgatgan
- C) hozirgi mantiqqa o'xshash fan bo'lib, unda o'quvchilar munozara olib borishga, o'z fikrini isbotlashga o'rgatilgan
- D) arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya asoslari

177.(7.j.-9) Ritorika bu...?

- A) tilshunoslik ilmi, bolalarni o'qishga o'rgatgan
- B) she'r, badiiy asarlar yozishni, notiqlik san'atini, huquq asoslarini o'rgatgan
- C) hozirgi mantiqqa o'xshash fan bo'lib, unda o'quvchilar munozara olib borishga, o'z fikrini isbotlashga o'rgatilgan
- D) arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya asoslari

178.(7.j.-9) Nisbatan murakkab fanlar tarkibi - kvadriyum o'quvchilarga...?

- A) tilshunoslik ilmi, bolalarni o'qishga o'rgatgan
- B) she'r, badiiy asarlar yozishni, notiqlik san'atini, huquq asoslarini o'rgatgan
- C) hozirgi mantiqqa o'xshash fan bo'lib, unda o'quvchilar munozara olib borishga, o'z fikrini isbotlashga o'rgatilgan
- D) arifmetika, geometriya, musiqa va astronomiya asoslari

179.(7.j.-10) Arab qabilalari qaysi xalqlardan hisoblangan?

- A) Badaviy
- B) Somiy (semit)
- C) Yunon
- D) Isroyil

180.(7.j.-10) Ko'chmanchi arablar - badaviylar (sahroyilar) boshqa qabilalar singari...?

- A) Tuyachilik, qo'ychilik va yilqichilik bilan shug'ullangan
- B) Dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan
- C) Baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullangan
- D) Tuyachilik, yilqichilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan

181.(7.j.-10)Qaysi shahar nomi arabcha "haq", "baxtli" ma'nosini bildirgan?

- A) Yaman
- B) Hijoz
- C) Makka
- D) Madina

182.(7.j.-10)Zamonlar o'tib Arabistondakarvon yo'llari bo'yida aholi qo'rg'onlari va shaharlar vujudga kelgan. Ularning eng yirigi qaysi shahar bo'lgan?

- A) Yaman
- B) Hijoz
- C) Makka
- D) Madina

183.(7.j.-10)Qaysi shahar Rim tarixchilari tomonidan "Baxtli Arabiston" (Arabia felix) deb nomlangan?

- A) Hijoz
- B) Yaman
- C) Makka
- D) Madina

184.(7.j.-10)VI—VII asrlarda arab qabilalari orasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirgan omil...?

- A) aholi sonini ko'payishi
- B) qabilalar orasida suv manbalari va yaylovlarni etishmasligi
- C) ularni turli ilohlarga sig'inilgani
- D) so'zlashuv tilining turli-tumanligi

185.(7.j.-10)Arablarning birlashuviga xizmat qilgan omil bu...?

- A) Islom dini
- B) Qo'shni davlatlarni kuchsizlanishi
- C) Kuchli armiyani shakllanishi
- D) Buyuk ipak yo'lini o'tganligi

186.(7.j.-10)570-yili Makkada tavallud topgan payg'ambar Muhammad alayhissalomni otalarining ismi?

- A) Abdulmutalib
- B) Abu Tolib
- C) Abu Bakr
- D) Abdulloh

187.(7.j.-10)570-yili Makkada tavallud topgan payg'ambar Muhammad alayhissalomni bobosining ismi?

- A) Abdulmutalib
- B) Abu Tolib
- C) Abu Bakr
- D) Abdulloh

188.(7.j.-10) Payg'ambar Muhammad alayhissalomni tarbiyasiga olgan amakisining ismi?

- A) Abdulmutalib
- B) Abu Tolib
- C) Abu Bakr
- D) Abdulloh

189.(7.j.-10)Muhammad alayhissalomga qachondan boshlab Alloh taolodan ilohiy oyatlar ayon bo'la boshlaydi?

- A) 570-yildan
- B) 622-yildan
- C) 610-yildan
- D) 630-yildan

190.(7.j.-10)Qur'onning arabcha ma'nosi...?

- A) "qiroat", "o'qish"
- B) "Qat'iy qonunlar"
- C) "Muqaddas so'z"
- D) "Kitob"

191.(7.j.-10)Qur'on qancha yil davomida nozil qilingan bo'lib, u necha suradan tashkil topgan?

- A) 20 yil, 112 suradan
- B) 23 yil, 114 suradan
- C) 28 yil, 128 suradan
- D) 36 yil, 112 suradan

192.(7.j.-10)622-yili Muhammad (s.a.v.) o'z tarafdorlari bilan Yasrib (Madina)ga keladi. Bu voqea tarixda...?

- A) Qaytish nomini olgan
- B) Ko'chish (hijrat) nomini olgan
- C) Urush (jihod) nomini olgan
- D) Meroj nomini olgan

193.(7.j.-10)622-yili Muhammad (s.a.v.) o'z tarafdorlari bilan Yasrib (Madina)ga keladi. Bu yil...?

- A) Makkadagi Ka'bani musulmonlarning asosiy ziyoratgohiga aylanish sanasi hisoblanadi
- B) Abu Bakr (632—634)ni xalifalikka ("o'rinbosar") saylanish sanasi hisoblanadi
- C) musulmon yil hisobining boshlanish sanasi hisoblanadi
- D) xalifa Umar (634—644)ni xalifalikka ("o'rinbosar") saylanish sanasi hisoblanadi

194.(7.j.-10)Muhammad payg'ambar vafotidan keyin uning o'rniga ...?

- A) Abu Bakr xalifalikka ("o'rin-bosar") saylanadi.
- B) Umar xalifalikka ("o'rin-bosar") saylanadi.
- C) Ali xalifalikka ("o'rin-bosar") saylanadi.
- D) Usmon xalifalikka ("o'rin-bosar") saylanadi.

195.(7.j.-11)Kimning boshqaruvi paytida Arabiston yarim oroli aholisi islomni to'liq qabul qildi?

- A) Umar davrida
- B) Abu Bakr davrida
- C) Ali davrida
- D) Usmon davrida

196.(7.j.-11)Qaysi xalifa davrida Eron to'liq bosib olinadi?

- A) Usmon xalifaligida (644-656)
- B) Ali xalifaligida (656—661)
- C) Abu Bakr xalifaligida (632-634)
- D) Umar xalifaligida (634-644)

197.(7.j.-11)Qaysi xalifa Islom dunyosida o'zining sahiyligi, adolatparvarligi va din masalalarida qat'iyligi bilan shuhrat qozongan?

- A) xalifa Abu Bakr
- B) xalifa Ali
- C) xalifa Umar
- D) xalifa Usmon

198.(7.j.-11)Tuya ustidagi xurjunning bir tomonida arpa uni, ikkinchi tomonida — quritilgan xurmo va ko'zachada suv solgan holda 637-yili Quddusga borgan va sulh tuzgan xalifa bu...?

- A) xalifa Abu Bakr
- B) xalifa Ali
- C) xalifa Usmon
- D) xalifa Umar

199.(7.j.-11)Qaysi xalifa davrida Qur'on oyatlari to'planib yagona kitob holiga keltirilgan?

- A) Ali xalifaligida (656—661)
- B) Usmon xalifaligida (644-656)
- C) Abu Bakr xalifaligida (632-634)
- D) Umar xalifaligida (634-644)

200.(7.j.-11)So'nggi xalifa bu...?

- A) xalifa Abu Bakr
- B) xalifa Ali
- C) xalifa Usmon
- D) xalifa Umar

201.(7.j.-11)Xalifalik qo'shinlari qachon Shimoliy Afrikani to'liq bo'ysundiradi?

- A) V asrda
- B) VI asrda

- C) VII asr boshlarida
- D) VIII asr boshlarida

202.(7.j.-11)Toriq ibn Said boshchiligida arablar qachon keyinchilik uning nomi bilan atalgan Gibraltar (Jabal at Tariq - "Toriq tog'i" so'zidan) bo'g'ozidan o'tib Ispaniyani bosib oladi?

- A) 722-yili
- B) 700-yili
- C) 711-yili
- D) 769-yili

203.(7.j.-11)732-yili Puate jangida qaysi franklar hukmdori arablarni yengib, ularning Fransiya yurishlariga chek qo'yadi?

- A) Karl Martell
- B) Buyuk Karl
- C) Roland
- D) Xlodvig

204. (7.j.-11)VII-VIII asrning birinchi yarmida ulkan hududlarni egallagan davlat - Arab xalifaligining tashkil topdi. Bu davlatning poytaxti shahri bo'lgan.

- A) Qohira
- B) Bag'dod
- C) Damashq
- D) Quddus

205.(7.j.-11)Qaysi xalifa bosib olingan yerlarni egalarida qoldirishni buyurgan?

- A) xalifa Abu Bakr
- B) xalifa Ali
- C) xalifa Usmon
- D) xalifa Umar

206.(7.j.-11)Arablar joriy etgan yer solig'i - xiroj hosilning necha %ni tashkil etgan?

- A) 1/4 ni
- B) 1/5 ni
- C) 1/3 ni
- D) 1/2 ni

207.(7.j.-11)Islomni qabul qilmagan boylardan necha dirham jizya solig'i olingan?

- A) 48 dirham
- B) 24 dirham
- C) 12 dirham
- D) 16 dirham

208.(7.j.-11)Chorva mollari va savdodan olingan zakot qancha 1/40 hissani tashkil etgan?

- A) 1/80 hissani
- B) 1/60 hissani
- C) 1/50 hissani
- D) 1/40 hissani

209.(7.j.-11)Iroqning Kufa shahrida 685-yili ko'tarilgan qo'zg'olonda kimlar qatnashgan?

